

**“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaga qarshi kurashish
boshqarmasining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish
natijalari haqidagi yillik
HISOBOT**

2024 yil 01 yanvar holatiga

I. Umumiy ma’lumot

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasiga 2023 yil davomida aloqa kanallari orqali jami 64 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, hududlar kesimida quyidagicha ko‘rinishga ega:

1. Toshkent shahri – 28 ta
2. Toshkent viloyati – 3 ta
3. Qashqadaryo viloyati – 5 ta
4. Surxondaryo viloyati – 5 ta
5. Samarqand viloyati – 3 ta
6. Jizzax viloyati – 3 ta
7. Buxoro viloyati – 3 ta
8. Xorazm viloyati - 2 ta
9. Navoiy viloyati – 5 ta
10. Qo‘ng‘irot tumani – 1 ta
11. Andijon viloyati – 3 ta
12. Sirdaryo viloyati – 1 ta
13. Farg‘ona viloyati – 2 ta

II. Ko‘rib chiqish natijalari

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasiga 2023 yil davomida kelib tushgan murojaatlar o‘rganilib, 2 ta murojaat bo‘yicha to‘plangan hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etildi, 7 ta murojaat anonim deb topilib ko‘rmasdan qoldirildi, 2 tasi murojaatchining shaxsiy arizasiga binoan ko‘rmasdan qoldirildi, 11 ta murojaat yuzasidan xizmat tekshiruv o‘tkazildi va xizmat tekshiruv xulosasi bo‘yicha 1 nafar rahbar xodim egallab turgan lavozimidan ozod qilinib, boshqa lavozimga o‘tkazildi, 41 ta murojaat bo‘yicha tegishli mutaxassislar tomonidan tushuntirishlar berildi.

III. Minimallashtirish choralari

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar quyidagilardan iborat:

1. O‘z vaqtida xizmat safarlari tashkil etildi.
2. Har bir murojaat bo‘yicha tegishli hujjatlar tegishli mutaxassislar tomonidan o‘rganildi.
3. Murojaatchilar bilan tegishli mutaxassislar o‘zaro bog‘langan holda kerakli ma’lumotlar va tegishli hujjatlar o‘rganib chiqildi.
4. Xizmat safarlari mobaynida tushuntirish ishlari olib borildi.